


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **72,8 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **7 570** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 3 254 ta, sanoat tarmog'ida 1 225 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 729 ta, yashash va ovqatlanishda 724 ta, qurilish tarmog'ida 372 ta, tashish va saqlashda 217 ta tashkil etilgan.

Korxonalar soni kesimida



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 foizi (2022-yil yanvar-dekabrda 70,4 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 14 561,2 mlrd. soʻmni (sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 44,6 foizi va faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 6 089 tani tashkil etdi);



47 974,9 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari umumiy hajmining 93,7 foizi) faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 789 tani tashkil etdi;



16 841,6 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib (umumiy investitsiyalar hajmining 63,4 foizini tashkil etdi);



8 350,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,9 foizi) (qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 495 tani tashkil etdi);



avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 1 405,9 mln. tonna km. tashkil qilib 86,6 foizi, umumiy yoʻlovchi aylanmasi 13 998,0 mln. yoʻlovchi km. tashkil qilib 98,4 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda (faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 022 tani tashkil etmoqda)




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,5 foizi yoki 24 934,9 mlrd. soʻm, xizmatlar umumiy hajmining 66,0 foizi yoki 19 140,4 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Savdo ohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 16 219 ta.




315,8 mln. AQSh dollari miqdorida eksport va (eksport hajmining 42,3 foizi) 945,4 mln. AQSh dollari miqdorida import (import hajmining 44,6 foizi) operatsiyalari amalga oshirildi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	47 974,9	93,7
Sanoat	14 561,2	44,6
Qurilish	8 350,2	82,9
Chakana savdo	24 934,9	82,5
Yuk tashish, mln tn.	53,5	92,0
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	420,0	96,1
Eksport, mln. AQSh doll.	315,8	42,3
Import, mln. AQSh doll.	945,4	44,6

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024-yilning 1-yanvar holatiga 55 029 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (51 025 ta) 107,8 foizni tashkil etdi.





Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatidan o'tganlarning ulushida savdo (40,6 %), sanoat (17,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (9,0 %), qurilish (7,1 %), tashish va saqlash (2,6 %), axborot va aloqa (1,8 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2018-2023-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi


Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (3 702,6 mlrd. so'm), Urgut (1 760,0 mlrd. so'm), Jomboy (1 674,9 mlrd. so'm), Samarqand (1 380,4 mlrd. so'm), Toyloq (843,9 mlrd. so'm), Bulung'ur (757,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ishtixon (242,8 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (138,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



2018-2023-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Samarqand shahri (6 599,2 mlrd. so'm), Urgut tumani (3 224,0 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (1 786,5 mlrd. so'm) shahri yetakchilik qilmoqda.

2018-2023-yillar yanvar-dekabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 72,8 foizni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga (70,4) nisbatan foizni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Narpay tumani (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (85,3 %), Oqdaryo tumani (84,1 %), Kattaqo'rg'on shahri (84,4 %), Qo'shrabot (84,3 %) va Ishtixon (84,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkich Samarqand shahriga (48,8 %) to'g'ri keladi.